



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE  
UNIVERSITY

**FarDU.**  
**ILMIY XABARLAR**

**IJTIMOYIY GUMANITAR  
FANLAR**

**Scientific journal  
of the  
Fergana State  
University**



**2/2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

**Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir  
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I.

|  |  |  |
|--|--|--|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston)<br>BEZGULOVA O.S. (Rossiya)<br>RASHIDOVA S. (O'zbekiston)<br>VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)<br>ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston)<br>AXTARIYEVA R. (Rossiya) | JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)<br>LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya)<br>A'ZAMOV A. (O'zbekiston)<br>KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)<br>RAKETIN O. (Rossiya) | G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)<br>BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)<br>KARIMOV N.F. (O'zbekiston)<br>CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)<br>TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)<br>TURAYEV A. (O'zbekiston) |
|--|--|--|

**Tahririyat kengashi**

| IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA |  |                               |                        |
|-------------------------------------|--|-------------------------------|------------------------|
| EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)      | FarDU, p.f.d.prof.                     | SIDDIQOV I. (O'zbekiston)     | FarDU, f.f.d.dots.     |
| XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)       | FarDU, p.f.d.prof.                     | YULDASHEV S. (O'zbekiston)    | FarDU, f.f.b.f.d(PhD)  |
| TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston)         | Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)     | G'ANIYEV B. (O'zbekiston)     | FarDU, f.f.d.dots.     |
| O'RINOVA N. (O'zbekiston)           | FarDU, p.f.n.dots.                     | QOSIMOV A. (O'zbekiston)      | FarDU, f.f.d.prof.     |
| ABBASOVA N. (O'zbekiston)           | FarDU, p.f.b.f.d(PhD)                  | MAMAJONOV A. (O'zbekiston)    | FarDU, f.f.d.prof.     |
| DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)         | FarDU, p.f.n.                          | ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof.     |
| G'OFUROV A. (O'zbekiston)           | FarDU, i.f.d.prof.                     | SHUKUROV R. (O'zbekiston)     | FarDU, f.f.n.dots.     |
| XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)       | FarDU, i.f.d.prof.                     | ZOKIROV M. (O'zbekiston)      | FarDU, f.f.n.prof.     |
| HOLMATOV B. (O'zbekiston)           | FarDU, i.f.n.                          | MO'MINOV S. (O'zbekiston)     | FarDU, f.f.d.prof.     |
| XAKIMOV N. (O'zbekiston)            | FarDU, f.f.d. dots.                    | YULDASHEVA D. (O'zbekiston)   | FarDU, f.f.doktori.    |
| ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)        | FarDU, t.f.d.                          | MAMAJONOV M. (O'zbekiston)    | FarDU, f.f.b.f.d.dots. |
| USMONOV B. (O'zbekiston)            | FarDU, t.f.d (DSc)                     | KAXAROVA M (O'zbekiston)      | FarDU, f.f.n.dots.     |
| MAXMUDOV O. (O'zbekiston)           | FarDU, t.f.d.dots                      | ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)  | FarDU, f.f.n.          |
| QAHHOROVA M. (O'zbekiston)          | Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof. | SABIRDINOV A. (O'zbekiston)   | FarDU, f.f.d.prof.     |
| MAMATOV M. (O'zbekiston)            | FarDU, f.f.d (PhD).prof.               | RAHIMOV Z. (O'zbekiston)      | FarDU, f.f.d.,dots     |
| QAMBAROV A. (O'zbekiston)           | FarDU, f.f.d.prof.                     | MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)    | FarDU, f.f.b.f.d(PhD)  |
| AHRORQULOVA A. (O'zbekiston)        | FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)                 |                               |                        |

**Muharrirlar:** Sheraliyeva J.  
Mirkarimova Sh.  
**Musahhihlar:** Raximov J.  
Mahmudov F.

**Tahririyat manzili:**  
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Farg'ona, 2024.

|  |     |
|--|-----|
| O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari .....  | 444 |
| <b>I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva</b>  |     |
| Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish .....  | 448 |
| <b>M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva</b>  |     |
| O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi.....   | 455 |
| <b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>  |     |
| Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....   | 458 |
| <b>O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova</b>  |     |
| The structure of speech acts in various types of discourse .....   | 462 |
| <b>X.M.Sotvaldieva</b>   |     |
| Paremiologiya fan sifatida.....  | 467 |
| <b>A.E.Botirova</b>  |     |
| Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar .....   | 473 |
| <b>R.Radjabov</b>  |     |
| Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar .....  | 478 |
| <b>M.N.Raxmanova</b>   |     |
| Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni<br>tanlash usullari.....              | 482 |
| <b>U.B.Almaz, O.X.Barziyev</b>   |     |
| Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi<br>mazmuniy mushtarakliklar .....               | 486 |
| <b>D.Sh.Islomov</b>  |     |
| His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis<br>Izard talqinida .....                     | 493 |
| <b>M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev</b>   |     |
| Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni<br>(nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida) ..... | 498 |
| <b>G.A.Saydaliyeva</b>   |     |
| Geshtlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....   | 501 |
| <b>G.N.Isakova</b>   |     |
| Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....   | 506 |
| <b>J.J.Egamberdiyev</b>  |     |
| Lug'at zamon va davr elchisi .....   | 511 |
| <b>Sh.Sh.Zarmasov</b>  |     |
| Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili .....  | 515 |
| <b>G.P.Nazarova, F.B.Alimova</b>   |     |
| "Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning<br>qo'llanilish tadqiqi .....                            | 522 |
| <b>S.A.Mannonova</b>   |     |
| Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash<br>va farqli jihatlari.....                            | 526 |
| <b>N.K.Ergasheva</b>   |     |
| Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context .....                                     | 529 |
| <b>A.K.Usmonov</b>   |     |
| Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari.....  | 533 |
| <b>N.K.Abbasova</b>  |     |
| Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms .....                                       | 538 |
| <b>D.G.O'rinboyeva</b>   |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim<br>mulohazalar .....                        | 542 |
| <b>N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova</b>  |     |
| Promoting oral communication through reading integration .....   | 545 |
| <b>Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова</b>  |     |
| Когнитивный подход к анализу художественного текста .....  | 550 |



UO'K : 811.111 (076.5)

**ORFOEPIYA VA UNING NORMALARI TO'G'RISIDA  
FIKR-MULOHAZALAR****МНЕНИЯ ОБ ОРФОЭПИИ И ЕЕ НОРМАХ****OPINIONS ABOUT ORTHOGRAPHY AND ITS NORMS****Ruslan Radjabov**

Buxoro davlat universiteti, Fransuz filologiyasi kafedrasida tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada orfoepiya va uning normalari xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'rganiladi va ularga munosabat bildiriladi. Shuningdek, orfoepiya ko'lami hamda orfoepik me'yor muammosi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolada tilshunoslikda orfoepiya tushunchasi va uning xususiyatlari haqidagi muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surgan jahon hamda o'zbek tilshunos olimlarning tadqiqotlarini o'rganilgan. Ularning bu boradagi fikr-mulohaza, nuqtayi nazar va ilmiy nazariyalariga munosabat bildirilgan hamda orfoepiya tushunchasi va uning xususiyatlari haqida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Vaqt o'tishi bilan variantlardan biri yetakchiga aylanib, qolganlari kamroq qo'llanib, iste'moldan chiqib ketishi va variantlardan birining yetakchi deb tanlanishiga uning til taraqqiyotidagi obyektiv qonunlarga muvofiq kelishi, keng tarqalganligi kabi omillar ta'sir ko'rsatilishi haqida fikrlar bildirilgan.

**Аннотация**

В данной статье изучаются научно-теоретические взгляды на орфографию и ее нормы и дается на них реакция. Также обсуждаются сфера применения орфоэпии и проблема орфоэпических норм. В данной статье изучаются исследования мировых и узбекских лингвистов, выдвинувших важные научно-теоретические взгляды на понятие орфоэпии и ее особенности в лингвистике. Выражаются их мнение, точка зрения и научные теории по этому поводу, а также приводятся мнения многих исследователей о понятии орфографии и ее характеристиках. С течением времени один из вариантов становится ведущим, а остальные используются реже и выходят из употребления, причем на выбор одного из вариантов в качестве ведущего влияют такие факторы, как его соответствие объективным законам развития языка и его широкое использование.

**Abstract**

This article studies scientific and theoretical views on spelling and its norms and gives a reaction to them. The scope of orthoepy and the problem of orthoepic norms are also discussed. This article examines the research of world and Uzbek linguists who have put forward important scientific and theoretical views on the concept of orthoepy and its features in linguistics. Their opinion, point of view and scientific theories on this matter are expressed, as well as the opinions of many researchers about the concept of spelling and its characteristics. Over time, one of the options becomes the leading one, and the rest are used less frequently and fall out of use, and the choice of one of the options as the leading one is influenced by factors such as its compliance with the objective laws of language development and its widespread use.

**Kalit so'zlar:** fonetik sistema, orfoepiya, orfoepik normalar, dialekt, me'yor o'zgarishi, ekstralingvistik omillar, kodifikatsiya, semasiologiya, tamoyil, tendensiya

**Ключевые слова:** фонетическая система, орфоэпия, орфоэпические нормы, диалект, изменение нормы, экстралингвистические факторы, кодификация, семасиология, принцип, тенденция.

**Key words:** phonetic system, orthoepy, orthoepic norms, dialect, change in norm, extralinguistic factors, codification, semasiology, principle, tendency.

**KIRISH**

Jamiyat o'z taraqqiyotini ta'minlash uchun hamma davrda ilm-fanni rivojlantirish va uning muammolarini tadqiq qilishga alohida e'tibor berib keladi.

"Tilshunoslik fani tilda bo'layotgan barcha o'zgarishlarni atroflicha o'rganadi. Har qanday fan esa, o'z navbatida, ehtiyoj tufayli yuzaga keladi va rivojlanadi"[1].

Tilshunoslikda fonetika, fonetik sistema tilning qurilish birliklari orasida o'zining o'zgaruvchanligi bilan leksikadan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

## TILSHUNOSLIK

Buning sababi shundaki, jamiyat va fan-texnikaning rivoji, neologizmlarning kirib kelishi, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari tilning fonetik qurilishiga tez ta'sir qiladi.

Mazkur maqolada biz tilshunoslikda orfoepiya tushunchasi va uning xususiyatlari haqidagi muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surgan jahon hamda o'zbek tilshunos olimlarning tadqiqotlarini o'rgandik. Ularning bu boradagi fikr-mulohaza, nuqtayi nazar va ilmiy nazariyalariga munosabat bildirdik.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ma'lumki, orfoepiya tushunchasi va uning xususiyatlari haqida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan fikrlar bildirilgan.

Olima Nina Katachning 1986-yilda chop ettirgan "L'orthographe française" asarining kirish qismida shunday deb yozgan: *"Ijtimoiy darajada ham narsalar o'zgardir: ommaviy axborot vositalari ko'paymoqda, biz kamroq o'qiyamiz, ijtimoiy-madaniy muhit o'zgarib bormoqda, yozma nutqning ahamiyati tobora ortib bormoqda. og'zaki bilan bog'liq holda kamayadi"*[6].

Darhaqiqat, orfoepiya adabiy tilda mustahkamlangan og'zaki va yozma nutq qoidalari majmui hisoblanib, ular uzviy bog'liqdir.

Orfoepiya birinchidan, *"Tilshunoslikning adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi bo'lim, ikkinchidan, muayyan milliy tilning talaffuz me'yorlariga mos holda bir xil talaffuzni ta'minlovchi qoidalar tizimi va ularga rioya qilishdir. Og'zaki nutq talaffuzining bir xilligi, imlo (orfografiya) kabi lisoniy muomalani yengillashtiradi"*[2].

Yuqoridagi manbada keltirilganidek, orfoepiya tushunchasi keng va tor ma'noda 2 xil tushuniladi: birinchidan keng ma'noda – unga fonemalarni qo'llash qoida va fonema allofonlarini talaffuz qilish qoidalari kiritildi, ikkinchidan tor ma'noda – faqat fonemalarni qo'llash qoidalari kiritildi. Orfoepiya ko'lamining bir xil belgilanmasligining sababi shunda-ki, ba'zi olimlar talaffuz me'yorlari tushunchasiga faqat tovushlarni talaffuz qilishni, boshqalari esa urg'uni ham, ba'zan variantdor grammatik shakllar hosil bo'lishini ham kiritadilar.

Orfoepiya rivojida namunali adabiy talaffuzni targ'ib qiluvchi teatr, keyinchalik radio va televideniya katta rol o'ynagan. Sahna nutqi ko'pchilik tillarda orfoepik me'yorlarning asosi sanaladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Har bir tarixiy davrda norma murakkab hodisa bo'lib, juda qiyin sharoitlarda paydo bo'ladi. Haqiqatdan ham klassik rus yozuvchilarining asarlari va o'zining grammatik tadqiqotlari asosida muallif rus stilistik grammatikasi qoidalari belgilab bergan, yozuvchilar va notiqlar uchun eng qiyin bo'lgan nutq shakllari va shakllaridan foydalanish qoidalari to'plangan uchun orqali tahlil qilib, yozuv va nutqning asl normalarining sofligi va go'zalligini ko'rsatib, tushuntirib bergan V.I.Chernishev bu haqda shunday deb ta'kidlaydi: *"Har qanday davr tilida uning zamondoshlari uchun tushunarsiz bo'lgan ko'p narsa bor: paydo bo'lgan, lekin qo'llanilmagan, ishlatilayotgan, lekin yo'qolmagan, qayta kirib kelgan, lekin o'rnatilmagan normalar mavjud"*[7].

Bilamizki, jamiyatdagi tarixiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, XII-asrning oxirida Île-de-France lahjasi boshqa dialektlardan ustun turadi, chunki Parij mintaqasi mamlakatning siyosiy va madaniy markaziga aylangan. Hokimiyatni yanada markazlashtirish va uning kuchayishi nafaqat milliy tilning grammatik va leksik tizimining, balki fonetik tizimining asosini tashkil etgan Parij lahjasining mavqeini mustahkamlashga yordam bergan.

Tegishli manbalarga tayanib, orfoepik me'yor muammosi bir til birligining bir emas, ikki yoki undan ortiq ifodasi bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Me'yorda ayni paytda til tizimida mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan narsa saralanadi. Tizim doirasida yangi shakllarning paydo bo'lishi hamda eskilarini ekstralingvistik omillar ta'sirida asta-sekin siqib chiqarishi natijasida me'yor o'zgarishi mumkin. Me'yorning o'zgarishi (almashinishi) har bir tarixiy davr tilida variantdor me'yorlarning ayni bir paytda mavjud bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi. Vaqt o'tishi bilan variantlardan biri yetakchiga aylanib, qolganlari kamroq qo'llanib, iste'moldan chiqib ketadi. Variantlardan birining yetakchi deb tanlanishiga uning til taraqqiyotidagi obyektiv qonunlarga muvofiq kelishi, keng tarqalganligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tilshunos olim B.N.Golovin me'yorni til belgilarining funksional xususiyati sifatida belgilaydi: "Me'yor – bu o'zaro tushunishning doimiy ehtiyoji tufayli undan foydalanadigan jamoa tomonidan yaratilgan tilning funksional tuzilishining xususiyati" dir[4].

Orfoepik me'yor muammosi bir til birligining bir emas, ikki yoki undan ortiq ifodasi bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Me'yorda ayni paytda til tizimida mavjud bo'lgan yoki mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan narsa saralanadi. Tizim doirasida yangi shakllarning paydo bo'lishi hamda eskilarini ekstralingvistik omillar ta'sirida asta-sekin siqib chiqarishi natijasida me'yor o'zgarishi mumkin. Me'yorning o'zgarishi (almashinishi) har bir tarixiy davr tilida variantdor me'yorlarning ayni bir paytda mavjud bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi.

Tilning talaffuz me'yorini kodlashtirish juda qiyin vazifa bo'lib, juda ko'p sonli lingvistik va tashqi omillarni hisobga olishni, shuningdek, vaqt o'tishi bilan talaffuzning o'zida tez o'zgarishlarni talab qiladi.

Sotsiolingvist Klara Mortamet Erik Landowski modelidan foydalanib, me'yorga nisbatan to'rtta pozitsiyani aniqlaydi: *Me'yorga rioya qilish istagi tufayli me'yorni haddan tashqari qadrlaydigan le snob, me'yordan uzoqligini ko'rsatadigan le dandy me'yor, me'yorga e'tibor bermasdan qo'shilishga intiladigan le caméléon va uning me'yordan voz kechishini qabul qiladigan l'ours*[3]. U o'z ishi diqqat markazida bo'lgan talabalarning imlosiga bo'lgan munosabatda bu turli xil munosabatlarni kuzatganida purist munosabat ko'proq snob figurasiga mos keladi. Oddiy bo'lib ko'rinishni maqsad qilgan caméléondan farqli olaroq, snob me'yordir: u o'zining me'yorni egallashini hamma kabi emas, balki o'zining ijtimoiy qadr-qimmatini himoya qilish uchun tan olishni xohlaydi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida mantiqiy bo'lgan ushbu model, u bilan bog'liq qadriyatlar tufayli Fransuz imlosiga nisbatan qiziqishni orttiradi.

Og'zaki til va yozma til o'rtasidagi munosabat o'z-o'zidan ravshan emas. 1993 yida ular "fonosentristlar" va "avtonomistlar"ni qarama-qarshi qo'yadi. Fonosentristlarning fikricha, yozuv qaysidir ma'noda faqat og'zaki tilning "kiyim" bo'lib, u asosiy lingvistik ma'lumotnomani tashkil qiladi. Fonosentristlar qatoriga orfografik tizimimizning asosini fransuz tilidagi tovushlarning transkripsiyasi bilish va topish kerak, deb hisoblaydigan imlo nazariyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Aytish joizki, imlo yoki orfografiyaga faqat so'zlarni yozish usuli emas, balki, so'zlashuv tilidagi so'zlarni transkripsiya qilish uchun standart sifatida ko'riladigan qoidalar va foydalanish to'plami sifatida qarash kerak.

### XULOSA

O'rta asrlarda, ya'ni XII-XIII asrlarda, yozuv mohiyatan og'zaki sivilizatsiyada ozmi-ko'pmi beqaror xotiraning o'ziga xos yordamchisi sifatida qaralar va uning asoslari mohiyatan fonologik bo'lib, kamchiliklar va ziddiyatlarga ega edi. Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar va qolaversa, o'qituvchilar tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgan natijaga to'liq erisha olmagan, deb aytish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, orfoepiya haqida bildirilgan jahon va milliy tilshunoslikdagi fikr-mulohazalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to'ldiradi va bir-birini taqazo etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Monografiya. Fanlar Akademiyasining "Fan" nashriyoti. – Toshkent, 2016. – B.200.
2. <https://imlo.uz/word/orfoepiya>
3. Головин Б. Н. Основы культуры речи / Б. Н. Головин. – М., 1988.
4. Кудряшева Ф. С. Орфоэпическая норма французского языка и его кодификация // Вестник Башкирск. ун-та. 2009. №4. УРЛ. 05.06.2020.
5. Nina Catach. L'orthographe française. Traité théorique et pratique avec des travaux d'application et leurs corrigés. Natash Université. Editeur Armand Colin, 2005.
6. Чернышев В. И. Правильность и чистота русской речи / В. И. Чернышев. – М. – 1909. – С. 41.
7. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Fransuz tili orfografiyasiga uyg'onish davri tilshunos olimlari tomonidan kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida." "Canada" International conference on developments in education, sciences and humanities. Vol. 9. No. 1. 2023.

## TILSHUNOSLIK

8. Rajabmurodovich, Radjabov Ruslan. "Orfoepiya va zamonaviy fransuz tilining orfoepik normasi xususida." *International scientific conferences with higher educational institutions*. Vol. 1. No. 05.10. 2023.
9. Radjabov, Ruslan. "Tilshunoslar ahamiyatidagi tinish belgilarining dastlabki sharhlar." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 31.31 (2023).
10. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tili orfoepiyasining shakllanish bosqichlari." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 30.30 (2023).
11. Radjabov, Ruslan. "Orfografiya Fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar: Orfografiya to'g'risidagi olimlarning nazariy qarashlari." *Центр научных публикаций (Buxdu. uz)* 27.27 (2023).
12. Ruslan, Radjabov. "Points de vue scientifiques sur les normes orthoépiques françaises." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 726-730.
13. Ruslan, Radjabov. "À propos du terme orthoépique." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 731-735.
14. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tilining orfoepik normalari xususida." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
15. Radjabov, Ruslan. "Fransuz tili imlosidagi ba'zi bir kamchiliklar xususida." *Молодые ученые* 2.1 (2024): 69-71.